

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Jahongirov Burxon</i> O'ZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA MUNOSABATLARI	13-18
<i>Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li</i> AMIR TEMUR DAVRIDA MINTAQADA KATOLIK CHERKOVI FAOLIYATI	19-23
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> XORAZM TARIXINI O'RGANISHDA "TARJIMON" GAZETASINING AHAMIYATI	24-28
<i>Karimbayeva Salomatxon, Isxakov Bexzod Barkamalovich</i> FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARI MODDIY MADANIYATIGA DOIR QARASHLAR TAHLILI	29-34
<i>Лукашова Наталья Михайловна</i> ИСТОРИЯ ТАШКЕНТА 30-Х ГОДОВ XVIII - ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА, ПРЕДСТАВЛЕННАЯ В РУССКИХ ИСТОЧНИКАХ	35-40
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> 1991–2025-YILLARDA O'ZBEKISTON-HINDISTON DIPLOMATIK VA TA'LIMIY HAMKORLIGINING RIVOJLANISHI: TARIXIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY ISTIQBOLLAR	41-44
<i>Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich</i> ETNOIQTISODIYOT XO'JALIK FAOLIYATI SEGMENTI SIFATIDA, UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA SHAKLLARI	45-52
<i>Tursunov Farrux G'ulomovich</i> QASHQADARYO VOHASI TOJIKLARINING HUNARMANDCHILIK TAOMILLARIDAGI O'ZGARISHLAR	53-58
<i>Mullajanova Xosiyat Yazdankulovna</i> XIX ASR OXIRIDA RUS GEOGRAFIK JAMIYATNING ILMIY TADQIQOTLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	59-63
<i>Муминов Азизбек</i> ИСТОРИЯ ЖИЗНИ И НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РАФАЭЛЯ ПАМПЕЛЛИ, ПРИЕХАВШЕГО В ТУРКЕСТАН В НАЧАЛЕ XX ВЕКА	64-69
<i>Suyarov Maxmudjon Sobirjon o'g'li</i> YUNON-BAQTRIYA TANGALARIDA AYOLLAR OBRAZI – DINIY-SIYOSIY RAMZ SIFATIDA	70-74
<i>Tuyev Fazliddin Erkinovich</i> BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARIDAGI MUZEYLARINING XORIJIY ALOQALARI	75-80
<i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich, Shonazarov Elnur Abbos o'gli</i> QASHQADARYO VILOYATIDA AYOLLAR BANDLIGI VA YENGIL SANOAT TARMOQLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY ROLI: TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR	81-85

<i>Jumayeva Shohida Choriyeвна</i> SURXONDARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR	86-90
<i>Azatov Allayar</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDA QUYI AMUDARYO HAVZASI VA "XORAZM DENGIZI" TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR	91-99
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILARDA O'ZLIKNI ANGLASHNING ZAMONAVIY JIHATLARI	100-105
<i>Orunbayev Asli</i> IKKINCHI MASHRUTIYAT JARAYONIDA JÖN TURKLAR HARAKATI VA RESPUBLIKA G'OYALARINING SHAKLLANISHI	106-113
<i>Matyaqbov Toyirjon Sultanbayevich</i> XORAZM VOHASI NEOLIT DAVRI O'RTA BOSQICHI KULOLCHILIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR	114-116

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna, Abduljalilov Xojiakbar Abduljalil o'g'li</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XUSUSIY SEKTORNING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	117-122
<i>Bazarova Gulnora Gulamovna</i> O'ZBEKISTON IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI.(UMUMIY MAQSADLAR YO'LIDAGI RIVOJLANISH).....	123-127
<i>Yadiyarova Shahnoza</i> THE ROLE OF THE MARKETING SYSTEM IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF LOCAL ENTERPRISES	128-135
<i>Нурмуродов Камолитдин Пирмаматович</i> НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ К ПОНЯТИЮ ФИНАНСОВЫЕ РЕСУРСЫ	136-141
<i>Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna</i> O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHNING BYUDJET VA BYUDJETDAN TASHQARI MANBALAR HISOBIGA MOLIYALASHTIRILISHI	142-146
<i>Olimjonova Sexriyo Muzaffar qizi</i> TURIZM INDUSTRIYASI VA MEHMONDO'STLIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH	147-150
<i>Anvarova Muhsinakhon Otabek kizi</i> THE ROLE OF BIOSPHERE RESERVES AND NATIONAL PARKS IN TOURISM	151-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TECHNICAL DEVELOPMENT AS AN ETHICAL-STRATEGIC RESOURCE	155-158
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING INSON KAMOLATI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI	159-165

<i>Xo'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI DAVR VA HOZIRGI ZAMON FALSAFASIDA AXBOROT URUSHLARINI O'RGANISHNING PARADIGMALARI	166-170
<i>Narziyev Zubaydillo Ibodilloevich</i> AZIZIDDIN NASAFIYNING "ZUBDAT UL - HAQOYIQ" ASARI TASAVVUF FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA	171-175
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLARDA MA'NAVIY VA AXLOQIY QIYMATLAR: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY O'RTASIDAGI TENGSIZLIKLAR VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	176-179
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL-MAORIF" ASARINING IJTIMOIY-AXLOQIY TAHLILI	180-185
<i>Shamsutdinova Nigina Karimovna</i> ABU ALI IBN SINO IRFONiy QARASHLARI: «TA'BIRI MANZIL» ASARI MISOLIDA	186-190
<i>Pardayeva Marhabo Davlatovna</i> "ODAMIYLIK" TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY KONTEKSTDA TRANSFORMATSIYASI	191-197
<i>Aripova Zulfiyaxon Solijonovna</i> SHARQ FALSAFASIDA IJTIMOiy ADOLAT TAMOYILLARI: FOROBIYNING FALSAFIY MEROSI MISOLIDA	198-203
<i>Muxtorova Tutixon</i> ZAMONAVIY DUNYODA YOSHLARNING MA'NAVIY-RUHIY BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MASALALARI	204-211
<i>Xakimov Abdulboqi</i> YOSHLARDA MANTIQUIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFANING AHAMIYATI	212-216
<i>Sardorbek Jabbarov Buron o'g'li, Mirzakhmedov Abdurashid Mamasidiqovich</i> ISTE'MOLCHILIK JAMIYATIDA AHOLINING ISTE'MOL ME'YORI	217-224
<i>Taniqulov Jonibek Ashirkulovich</i> TA'LIM MADANIYATI VA UNING FALSAFIY FUNDAMENTLARI: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR, GNOSEOLOGIK ILDIZLAR VA AKSIOLOGIK TAHLIL	225-229
<i>Бердалиева Севара Дамировна</i> СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРУДОВ АЛЛАМА ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ЭТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ	230-234
<i>Хушбоков Ойбек Уралович</i> СОВРЕМЕННАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОНЦЕПТОСФЕРА УЧИТЕЛЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ	235-239
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER DAVRIDA FRANSIYADA MA'NAVIY MIHITNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	240-244
<i>Muxiddinova Hakimaxon G'ulomovna</i> EKOLOGIK TAFAKKUR VA YASHIL IQTISODIYOT – UCHINCHI RENESSANSNING YANGI FALSAFIY PARADIGMASI SIFATIDA	245-250

<i>Zokirov Mirzo</i> MAMLAKATLARNING TANAZZUL VA TARAQQIYOTINI BELGILOVCHI IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLAR	251-255
--	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Jo'rayev Nabi Narziyevich</i> O'ZBEK MILLIY LINGVOMADANIYATINING QADIMIYLIK VA ZAMONAVIYLIK ASOSLARI	256-262
<i>Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> PRAGMATICS OF GENDERED COMMUNICATION IN ENGLISH	263-267
<i>Zaripova Matluba Kulfidinovna</i> GRAMMATICAL MEANS OF EXPRESSING PEJORATION IN UZBEK AND RUSSIAN	268-271
<i>Sayipova Dilobar Raximovna</i> ADABIYOT FANIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI	272-275
<i>Soibova Gulchiroy Bakhtiyorjon qizi</i> TRANSLATION ISSUES IN THE GENERAL AND SPECIFIC OCCURRENCE OF THE HORSE IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES	276-281
<i>Zokirova Shaxzoda Nodirjon qizi</i> TELEVISION AS A RHETORICAL ARENA: THE MANIFESTATION OF CLASSICAL RHETORICAL CANONS IN MODERN TV GENRES	282-288
<i>Abdujalilova Ruxshona Abdug'afforzoda</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLARINING SHAKLLANISHINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI	289-293
<i>Abduraximova Feruza Boxadirovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OT YASOVCHI QO'SHIMCHALARNING QIYOSIY TAHLILI	294-300
<i>Jalolova Feruza Normurodovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI	301-305
<i>Ahrorova Nigina Anvarovna</i> MIFOLOGIK TASAVVURLAR MUAYYAN VOQELIK MOHIYATI	306-309
<i>Razikov Baxtiyor Kosimovich</i> MEMLAR TILIDAGI NEOLOGIZM: QOIDABUZARLIKMI YOKI INNOVATSIYAMI? O'ZBEK RAQAMLI DISKURSI MISOLIDA	310-314
<i>Kutbiddinova Nazokatkhon Dovudkhon qizi</i> GENDER-BASED DIFFERENCES IN THE USE OF PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	315-319
<i>Nazarova Sabrina Zafarjon qizi</i> YOZMA NUTQDAGI GRAMMATIK BUZILISHLAR: AGRAMMATIK DISGRAFIYANING LINGVISTIK VA NEYROPSIXOLOGIK ASOSLARI	320-323
<i>Ёлдашалиева Мадина Зиёджон кызы</i> ЖЕНСКОЕ СЧАСТЬЕ КАК ПРИНЯТИЕ ЛЮБВИ И ЗАЩИТЫ В ПОВЕСТИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА «ТОПОЛЁК МОЙ В КРАСНОЙ КОСЫНКЕ»	324-326

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi</i> HAVO TRANSPORTIDA TASHUVCHI JAVOBGARLIGINING NAZARIY DOKTRINASI	327-333
<i>Abdullayev Rustam Kaxramanovich</i> JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DAKTILOSKOPIYANING IMKONIYATLARI	334-339
<i>Давронов Атобек Равшанович</i> ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЙ СУБЪЕКТ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА: ДОКТРИНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ	340-349
<i>Eshturdiyeva Farangiz Baxodir qizi</i> O'ZBEKISTONDA HUQUQ IJODKORLIGI SIYOSATI: STRATEGIK PRINSIPLAR VA ULARGA YANGICHA NAZARIY YONDASHUV	350-355
<i>Исламов Самандар Олимжон угли</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ КРИПТО-АКТИВОВ В СТРАНАХ СНГ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ	356-363
<i>Uteniyazov Keulimjay Kuanyshbayevich</i> AYBLOV TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQ TIZIMIDAGI O'RNI	364-370
<i>Ikramov Abrorbek Kamoliddinovich</i> ASSOZ BOYISH NATIJASIDA VUJUDGA KELGAN MAJBURIYATLAR	371-375
<i>Muxitdinova Firuza, Saidakamal Mamasoliyev</i> ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	376-380
<i>Бахриддинова Бехруза Бахриддиновна</i> ХАРАКТЕРИСТИКА ОСНОВНЫХ ПОДХОДОВ К СОВРЕМЕННОМУ ПОНИМАНИЮ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА	381-388
<i>Axmedov Dilshod Baxramovich</i> MA'MURIY SUDLARDA PROKUROR ISHTIROKINI SAMARALI TA'MINLASHNING AMALIY MASALALARI	389-394
<i>Shodmonov Farrux Fayzullo o'g'li</i> DAVLAT BOSHQARUVIDA TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	395-401
<i>Bozorov Ulug'bek</i> TEXNIKA YO'NALISHI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI KASBIY-HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODELI	402-407
<i>Nurullayeva Djamilya Sayfiyevna</i> O'ZBEKISTONDA SPORT TASHKILOTLARINING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNING MOLIVAVIY MUSTAQILLIGI	408-413
<i>Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna</i> TURIZM XIZMATI SOHASIDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	414-420

<i>Shirinqulov Baxtiyor Iftixor o'g'li</i> MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA KO'ZDAN KECHIRISH TERGOV HARAKATINI O'TKAZISHNING TAKTIK XUSUSIYATLARI	421-428
<i>Salomov Xumoyun</i> OMMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASHDA PROKURATURA ORGANLARINING AHAMIYATI	429-433
<i>Kakhramonova Aziza</i> THE PRINCIPLE OF INTERNATIONAL LAW ENSURING THE RIGHT OF A CHILD TO LIFE, SURVIVAL AND DEVELOPMENT AND ITS ESSENCE	434-437
<i>Xoliqova Gavhar Ramazon qizi</i> XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING KOLLIZION MASALALARI	438-444
<i>Sharipov Firdavs Xolnazarovich</i> OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATIDA AYRIM YORDAMCHI TUZILMALARNING ISHTIROKI	445-450
<i>Nugmanov Nugman Abdullayevich, Nizomova Nastarin Vladimirovna</i> PARTICIPATION OF WOMEN IN SHAPING THE DIGITAL LEGAL SPACE	451-456
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARINI EMOTSIONAL VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	457-462
<i>Nabiullin Rishat Xismatullovi, Raxmonov Azizbek Abdullajonovich</i> XORIJDA KORPORATIV SPORTNI RIVOJLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA XORIJ TAJRIBASINI JORIY ETISH	463-468
<i>Xudayberganov Otabek Erkinovich</i> BASKETBOL VOSITALARI VA MUAMMOLI O'QITISH USULLARI YORDAMIDA JISMONIY MADANIYAT FAKULTET TALABALARINING KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	469-474
<i>Nishonova Dilafruz</i> O'QUVCHILARDA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	475-480
<i>Davletyarova Laylo Baxodirovna</i> YENGIL ATLETIKADA TRENERLIK FALSAFASINI RIVOJLANISHI	481-486
<i>Madrahimov Alisher Maxammadibroximovich</i> O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA ZO'RAVONLIK PROFILAKTIKASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	487-493
<i>Шавилова Наталья Сергеевна</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА: ВЛИЯНИЕ НА МОТИВАЦИЮ И КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ	494-500
<i>Nosirov Murod Zakirovich, Jonibekova Sevara Dilmurod qizi</i> FIZIK JARAYONLARNI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH	501-508

<i>Mattiyeva Feruza Begmatdulabovna</i> ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TARJIMA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	509-515
<i>Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi</i> RAQAMLI MUHITDA O'SMIR YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK EHTIYOJLARINING SHAKLLANISHI	516-519
<i>Usmonqulov Jo'rabek Erkin o'g'li, Kubayiva Sarvinoz Asrorbek qizi</i> TALABALARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI	520-525
<i>Xayitova Dilovar Ismat qizi</i> STEAM INTEGRATSIYASI ORQALI AXBOROT-PROTSESSUAL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI	526-532
<i>Soliyeva Muqaddas Nurnazarovna</i> THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) IN UZBEK CLASSROOMS	533-537

Received: 15 September 2025

Accepted: 1 October 2025

Published: 10 October 2025

Article / Original Paper

TACTICAL FEATURES OF CONDUCTING THE INVESTIGATIVE ACTION OF INSPECTION IN THE INVESTIGATION OF CRIMES RELATED TO THE VIOLATION OF LABOR PROTECTION RULES

Shirinkulov Bakhtiyor Iftikhorovich

Independent Researcher at the Academy of Law Enforcement

Abstract. The article analyzes the procedural foundations and practical aspects of conducting the investigative action of inspection under the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan. Based on the provisions of Articles 135–141 of the CPC and scholarly opinions, the significance of crime scene inspection and its role as an urgent investigative action are highlighted. The paper outlines the specific features of inspection in cases of violations of labor protection and safety regulations in construction work, the tasks faced by investigators, and the issues of coordination with the activities of commissions. Furthermore, the necessity of incorporating electronic evidence into the inspection process under modern digital technologies is substantiated, along with proposals for corresponding amendments to the legislation.

Keywords: inspection, criminal procedure code, investigative action, crime scene, physical evidence, construction work, labor protection, safety regulations, digital evidence, procedural foundations.

MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA KO'ZDAN KECHIRISH TERGOV HARAKATINI O'TKAZISHNING TAKTIK XUSUSIYATLARI

Shirinqulov Baxtiyor Iftixor o'g'li

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

E-mail: shirinqulov@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksida ko'zdan kechirish tergov harakatini o'tkazishning protsessual asoslari va amaliy jihatlari tahlil etilib, JPKning 135–141-moddalarida nazarda tutilgan normalar hamda olimlarning fikrlari asosida hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishning ahamiyati, uning kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakati sifatidagi o'rni yoritilgan. Qurilish ishlari paytida mehnat muhofazasi va xavfsizlik qoidalarini buzish holatlarida ko'zdan kechirishning o'ziga xos jihatlari, tergovchi oldida turgan vazifalar hamda komissiya faoliyati bilan uyg'unlik masalalari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalar sharoitida elektron dalillarni ko'zdan kechirish jarayoniga qo'shish zarurati va qonunchilikka tegishli o'zgartirishlar kiritish takliflari asoslantirilgan.

Kalit so'zlar: ko'zdan kechirish, jinoyat-protsessual kodeks, tergov harakati, hodisa joyi, ashyoviy dalillar, qurilish ishlari, mehnat muhofazasi, xavfsizlik qoidalari, raqamli dalillar, protsessual asoslar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I10Y2025N72>

Kirish. Jinoyat-protsessual qonunchilikda tergov harakatlari alohida o'ringa ega bo'lib, ular orasida ko'zdan kechirish tergov harakati muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan ushbu tergov harakati jinoyat izlarini topish, ashyoviy dalillarni aniqlash, hodisa sodir bo'lgan vaziyatni xolisona baholash va ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni belgilash imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 135–141-moddalarida ko'zdan kechirishning protsessual asoslari, tartibi va ishtirokchilarining huquq hamda

majburiyatlari belgilangan bo'lib, uning qonuniy va samarali o'tkazilishi jinoyat ishini to'g'ri hal etish uchun asosiy omil hisoblanadi.

Ayniqsa, qurilish sohasida mehnat muhofazasi va xavfsizlik qoidalarini buzish bilan bog'liq jinoyat ishlarida hodisa joyini ko'zdan kechirishning ahamiyati beqiyos. Bu sohaning texnologik murakkabligi, turli mexanizmlar, asbob-uskunalar va katta hajmli obyektlar bilan bog'liqligi sababli tergovchidan yuqori kasbiy mahorat va tayyorgarlik talab qilinadi. Shu bilan birga, zamonaviy raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi elektron dalillarni ko'zdan kechirish jarayoniga qo'shish zaruratini ham taqozo etmoqda.

Jinoyat- protsessual kodeksining 16-bobida ko'zdan kechirish tergov harakatini o'tkazishning protsessual asoslari belgilangan.

JPK 135-moddasiga muvofiq, jinoyat izlari, ashyoviy dalillarni topish, hodisa sodir bo'lgan vaziyatni va ish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa holatlarni aniqlashtirish maqsadida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud hodisa sodir bo'lgan joyni, murdani, hayvonlarni, tevarak-atrofni, binolarni, narsalar va hujjatlarni ko'zdan kechiradi.

Ko'pgina olimlar "hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish muhim tergov harakati hisoblanib, uning sifatli amalga oshirilishi jinoyat ishining keyingi natijalari muvaffaqiyatli bo'lishiga xizmat qiladi" [1] deb hisoblashadi. Boshqa bir mualliflar esa, "ko'zdan kechirish aynan ana shu joyda jinoyat sodir etilganligi yoki uning izlari borligi haqida ma'lumotlar bo'lgan taqdirda o'tkaziladi" [2] degan fikrdalar. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakati sifatida ko'zdan kechirish boshlang'ich va kechiktirib bo'lmaydigan eng muhim tergov harakati hisoblanadi va u jinoyat izlarining tabiiy ta'sirlar natijasida buzilib ketishi va ataylab yo'qolishining oldini olishga yo'naltirilgan. Shu sababli tergovchi (tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi shaxs, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror) hodisa sodir bo'lganligi haqidagi xabarni olishi bilan har qanday ob-havo sharoiti yoki vaqtga qaramay darhol o'sha joyga yetib borishi va ko'zdan kechirishni amalga oshirishi zarur [3].

Adabiyotlar tahlili. M.Muminov ta'kidlashicha, "Bizning fikrimizcha, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda haqiqiy hodisa holatlarini aniqlash va xolisona tergovni ta'minlashda katta ahamiyatga ega bo'lgan holatlar, ya'ni ko'zdan kechirilaётgan obyektlarning holati, o'ziga xos belgilari aniqlanadi. Shuningdek, sodir bo'lgan hodisaning xususiyati, jinoyatchining shaxsi va maqsadi kabi holatlar ham aniqlanadi. Jinoyat izlari, ashyoviy dalillarni topish, hodisa sodir bo'lgan vaziyatni va ish uchun ahamiyatli boshqa holatlarni aniqlash maqsadida hodisa sodir bo'lgan joy, narsa va hujjatlar, murda, hayvonlar, tevarak-atrof va binolar ko'zdan kechiriladi" [4].

"Ma'lumki, har bir sodir etilgan jinoyat o'ziga xos belgi va xususiyatlarga ega. Shu bois, jinoyat sodir etilgan joydagi izlarni topish va ashyoviy dalillarni yo'qotmaslik uchun hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish o'tkazilishi talab etiladi. Hodisa sodir bo'lgan joyda ko'p hollarda jinoyatga oid moddiy izlar va boshqa ashyoviy dalillar qoladi. Ularni qidirib topish va amaldagi qonunchilik talablari asosida o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirib, jinoyat ishiga qo'shish muhim ahamiyatga egadir. Chunki, ashyoviy dalillar jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlash va uning aybini isbotlashga xizmat qiladi. Qolaversa, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish davomida olingan izlar, ashyoviy dalillar va ishga doir boshqa ma'lumotlar tergovchiga jinoyatni ochish, tergovni rejalashtirish va o'tkazilishi lozim bo'lgan tergov harakatlarining birin-ketinligini belgilab olish imkoniyatini beradi" [5].

Ko'plab tekshiruvchilar tomonidan tasdiqlangan qurilish ishlari paytida mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik qoidalarini buzish bo'yicha jinoyat ishlari materiallarini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, voqea joyini tekshirish nafaqat shoshilinch, balki eng murakkab tergov harakatlari qatoriga kiradi [6]. Avvalo, bu qurilish sohasining o'ziga xos xususiyatlari: ko'plab mashinalar, mexanizmlar, asboblari, shuningdek turli xil tuzilmalar va qurilmalardan foydalanish bilan bog'liq qurilish texnologiyasining murakkabligi; qurilish obyektlarining katta o'lchamlari; tabiiy sharoitda qurilish ishlarini o'tkazish (ya'ni geografik, iqlimiy, muhandislik va geologik omillarga qarab) va boshqalar bilan bog'liq.

Natijada, tergovchining voqea joyida harakat qilishi juda qiyin, tekshirish, olib qo'yish lozim bo'lgan narsalar, predmetlar, hujjatlarning butun ro'yxatini aniqlash haqida gapirmasa ham bo'ladi. Natijada, voqea joyini tekshirish umuman amalga oshirilmaydi (qurilish ishlari paytida xavfsizlik qoidalarini buzish bo'yicha jinoiy ishlar materiallarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, tergovchilar voqea joyini faqat 67% hollarda tekshirishga borishgan) yoki juda yuzaki amalga oshiriladi [7].

I.M. Belyaeva, ta'kidlashicha, aksariyat hollarda voqea joyini o'rganish muhimligini kam baholaydigan va kamdan-kam hollarda uni o'tkazadigan tergovchilar ushbu yondashuvni voqea sodir bo'lgan joyni tergov qilish paytida voqea sodir bo'lgan joyning holati va u yerda bo'lgan jinoyat izlari to'g'risida o'rganish mumkin bo'lgan materiallarga muvofiq amalga oshirilganligi bilan asoslashadi [8]. Bunday yondashuv to'g'ri ko'rinmaydi, chunki na biron bir hujjat, na hech kimning guvohligi tergovchining voqea joyidagi vaziyatni, voqea izlarini, narsalarni, hujjatlarni, salbiy holatlarni shaxsiy idrok etish natijalarini o'rnini bosmaydi. Bundan tashqari, hodisa joyini ko'zdan kechirish paytida tergovchi oldida turgan vazifalar qatoriga jinoyat-protsessual Qonunida nazarda tutilgan isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni belgilash; jinoyat sodir etilishiga sabab bo'lgan izlar, obyektlar va hujjatlarni aniqlash, belgilash va olib qo'yish; jinoyat oqibatlarini aniqlash, topilgan izlar, narsalarning kelib chiqishi haqidagi versiyalarni ilgari surish ham kirsa, unda komissiyaning vazifalari voqea sodir bo'lgan joyning holatini aniqlash, uning sabablari va oqibatlarini, shuningdek jinoyatchilarni aniqlash bilan cheklanadi. Shuningdek, baxtsiz hodisani bo'yicha komissiya (hodisa sabablarini texnik tekshirish) tomonidan o'tkazilgan tekshirish chog'ida tekshiruvning xolisligi kafolati bo'lgan protsessual qonun talablariga rioya qilinmasligi ham kam ahamiyatli emasligiga ishonamiz. Va, nihoyat, ushbu komissiya faoliyatining natijalari tergovchi tomonidan qayta ko'rib chiqilishi lozimligiga shubha yo'q.

Qurilish ishlari paytida mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik qoidalarining buzilishini tekshirish paytida tergov tekshiruvidan o'tkaziladigan asosiy obyektlar: qurilish ishlari hududi; muayyan aybdor shaxsning ish joyi (xo'jalik yurituvchi subyektning idoralari, boshqa binolar, shuningdek to'g'ridan-to'g'ri qurilish ishlari joyi, shu jumladan tashqarida joylashgan qurilish maydonchasining hududi); muayyan ish joyi; muayyan qurilish ishlarini olib borishda ishlatiladigan mashinalar, mexanizmlar, uskunalar, asboblari; jabrlanuvchining ish joyi; qurilish maydonidan tashqaridagi hudud; odamlarning jasadlari; shikastlangan (vayron qilingan) binolar, inshootlar, boshqa buyumlar; transport vositalari; individual (jamoaviy) himoya vositalari; jabrlanuvchilar, jinoyatchilarning kiyimlari; hodisa paytida hosil bo'lgan izlar; ish uchun tegishli hujjatlarning joylashuvi va boshqalar. A.Yu. Butyrin ma'lumotlariga ko'ra, sodir bo'lgan voqea bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan barcha narsalar va izlar, xurofot va xurofotsiz va ba'zi hollarda — bir versiyani boshqalarga nisbatan afzal ko'rishga bo'lgan

ishonchga zid ravishda, tekshiruv paytida izolyatsiya va fiksatsiya qilinadi. Ularning tadbirdagi roli keyinchalik tergov harakatlari va ekspert tekshiruvlarining butun majmuasi natijasida aniq belgilanadi [9].

JPK 136-moddasiga ko'ra, Tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv yoki dastlabki tergov bosqichida ko'zdan kechirish xolislar ishtirokida o'tkaziladi. Jinoyat ishi ko'rilayotgan vaqtda ko'zdan kechirishga zarurat tug'lsa, sud bu haqda ajrim chiqaradi va ko'zdan kechirishni taraflar ishtirokida o'tkazadi.

Zarur hollarda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud ko'zdan kechirish chog'ida o'lchov o'tkazadi, fotosuratga, kinotasvirga, videoyozuvga tushiradi, rejalar, sxemalar, chizmalar tuzadi, izlardan qoliplar va nusxalar oladi. Bu ishlarni bajarishga yordam berish uchun ko'zdan kechirishga mutaxassislar jalb qilinishi mumkin.

Ko'zdan kechirish chog'ida topilgan va olib qo'yilgan barcha narsalar xolislariga, taraflarga va ko'zdan kechirishning boshqa ishtirokchilariga ko'rsatilishi lozim.

Ko'pgina kriminalistlar hodisa holatlarini aniqlashtirishda tergovchi voqea joyida salbiy holatlar mavjudligiga [10], ya'ni tergovchi tomonidan tekshirilayotgan ushbu hodisaning versiyasiga zid keladigan bunday aniqlanadigan yoki etishmayotgan izlar, hodisalar, vaziyat tafsilotlari, tergov qilinyotgan voqea mexanizmi yoki faktlar mavjudligi yoki yo'qligiga jiddiy e'tibor berishi lozim [11]. Shu munosabat bilan V.I. Roxlin protokolni tuzishda tergovchilar ko'pincha bu holatlarni aks ettirmasligini, protokol faqat tergovchining joyida ko'rgan narsasini aks ettirishi lozimligiga asoslanib, haqli ravishda qayd etadi [12].

JPK 137-moddasiga muvofiq, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish aynan ana shu joyda jinoyat sodir etilganligi yoki uning izlari borligi haqida ma'lumotlar bo'lgan taqdirda o'tkaziladi.

Kechiktirib bo'lmaydigan hollarda hodisa sodir bo'lgan joy jinoyat ishi qo'zg'atilishidan oldin ham ko'zdan kechirilishi mumkin.

Katta maydonlarni va binolarni ko'zdan kechirish bir necha surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin, bunda ularning har biri kamida ikki nafar xolis ishtirokida ko'zdan kechirishi lozim.

Hodisa sodir bo'lgan joydan olingan narsalar, hujjatlar va izlar o'raladi va muhrlanadi. Katta hajmdagi narsalar olinmaydi va muhrlanmaydi, lekin tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi yoki tergovchi ularni saqlash choralarini ko'rish lozim.

A.Imomnazarov ta'kidlashicha. "Ko'zdan kechirish tergov harakatini o'tkazishda barcha obyektlar hissiy organlar – ko'rish, teginish, hidlash, eshitish yordamida o'rganiladi. Tekshiruvni o'tkazish jarayonida tergovchi asosan hissiy-ratsional bilish usullaridan foydalanadi: kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish, sintez va hk. Ko'zdan kechirish tergov harakati vaqtida maxsus texnik vositalardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ba'zi bir instrumental usullardan ham foydalanish mumkin. Aytaylik, lyuminol yoki gemofan eritmasi qonning ko'rinmas va deyarli anglab bo'lmaydigan izlarini aniqlash uchun ishlatiladi. Bunday vositalardan foydalanish bo'yicha harakatlar ko'zdan kechirish tergov harakatining mohiyatini aks ettirmaydi, ammo ish uchun juda ahamiyatli hisoblanadi" [13].

Tahlil va natijalar. Kriminalistik adabiyotlarini o'rganish va sud-tergov amaliyotini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, qurilish ishlari paytida mehnatni muhofaza qilish va

xavfsizlik qoidalarini buzish hollarida hodisa joyini to'g'ridan-to'g'ri tekshirishdan oldin, ushbu tergov harakatiga tayyorgarlik ko'rish lozim, shu jumladan:

- voqea joyini muhofaza qilishni ta'minlash (hodisa sodir bo'lgan tashkilot ma'muriyati yoki xodimlar ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilishi mumkin);
- hodisa joyi, tekshirish obyektlarining chegaralarini aniqlash (tekshirishda ishtirok etuvchi mutaxassislarning ishtiroki masalasini hal qilish uchun; zarur texnik vositalar bo'yicha);
- tekshirish ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash;
- jabrlanuvchilarga zudlik bilan tibbiy yordam ko'rsatish (agar u ish beruvchining tashabbusi bilan ularga taqdim etilmasa, bu uning vazifalarining bir qismi), shoshilinch qutqaruv operatsiyalarini tashkil etish;
- ichki ishlar organlari xodimlariga, tashkilot ma'muriyatiga tekshirish joyida hodisaga aloqador guvohlarning hamda qurilish tashkiloti mansabdor shaxslarining kelishini ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalar berish;
- guvohlarning, qurilish tashkiloti ma'muriyatining dastlabki so'roq qilish (voqea sharoitlari, voqea joyiga kiritilgan o'zgarishlarning mohiyati haqida);
- tekshirish va uning natijalarini samarali o'tkazish uchun zarur texnik vositalarni tayyorlashni mutaxassisga topshirish.

Qurilish ishlari paytida mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik qoidalarining buzilishini tergov qilishning o'ziga xos xususiyati shundaki, ko'pincha jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergov baxtsiz hodisa tekshiruv bilan parallel ravishda o'tkaziladi (hodisa sabablarini texnik tekshirish), bu esa o'z navbatida tergovchining voqea joyidagi ishini tashkil etishning ba'zi xususiyatlarini belgilaydi. Shunday qilib, agar tergovchi voqea sodir bo'lgan joyga baxtsiz hodisa tergov komissiyasi a'zolaridan oldin yetib kelgan bo'lsa (hodisa sabablarini texnik tekshirish), ular kelgan taqdirda tekshirishni yakunlashi shart. Voqea joyini tekshirish bo'yicha komissiya a'zolari (hodisa sabablarini texnik tekshirish) voqea joyini tergovchining ishi tugaganidan keyingina tekshirishlari mumkin, agar lozim bo'lsa, undan dastlabki vaziyatdagi o'zgarishlar to'g'risida ma'lumot olishlari mumkin. Agar hodisa joyiga yetib kelgan vaqtga kelib, tergovchi hodisa tergov komissiyasi tomonidan tekshirilsa (hodisa sabablarini texnik tekshirish), agar u hali tugallanmagan bo'lsa, unda vaziyatning keyingi o'zgarishlariga yo'l qo'ymaslik uchun u vaqtincha to'xtatiladi va faqat tergov ekspertizasi tugaganidan keyin qayta tiklanadi. Bunday vaziyatda tergovchi tekshiruvga o'tishdan oldin komissiya raisidan dastlabki vaziyat qanday bo'lganligi, unda qanday o'zgarishlar kiritilganligini bilib, ushbu ma'lumotni voqea joyini tekshirish protokoliga yozib qo'yadi, ular kim tomonidan, qachon tuzilganligi, bu haqida kim unga xabar berganligini ko'rsatadi.

"Hodisa joyini ko'zdan kechirish, tergovni to'g'ri tashkil etish, versiyalarni tuzish va ularni tekshirish hamda lozim bo'lgan holatlarni aniqlashga imkon beradigan tergov harakatidir" [14].

Ko'zdan kechirishning ushbu turining umumiy vazifasi yuz bergan jinoyat voqeasi holatlari, unga daxldor shaxslar va obyektlar, ularning o'zaro aloqalari va harakatlari to'g'risida faktik ma'lumotlarni protsessual yo'l bilan olishdan iborat.

Tergovchining qurilishda mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik qoidalari buzilgan hollarda hodisa joyini tekshirish paytida qiladigan ishi, asosan, tekshiruv emas, balki faktlarni belgilash hisoblanadi.

Shuni ta’kidlash lozimki, tergov qilinayotgan holatlarda hodisa joyini tekshirish jarayoni va natijalarining ahamiyati nafaqat tergov harakati bayonnomasida ularning aniqlanishining to’g’riligiga, balki ma’lumotlarni tuzatishning barcha mumkin bo’lgan qo’shimcha vositalaridan (rejalar, diagrammalar, chizmalar, eskizlar, fotografiya, videoyozuv va boshqalar) foydalanishga bog’liq [15]. Bu vositalardan foydalanish hodisa va uning alohida detallari; tekshirishda ishtirok etuvchi shaxslar, ularning harakatlari; voqea joyini tekshirish shartlari va vaqti va boshqalar haqida to’liq tasavvurga ega bo’lish imkonini beradi.

JPK 141-moddasida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi yoki tergovchi ko’zdan kechirish o’tkazilganligi to’g’risida bayonnoma tuzadi, sud esa ko’zdan kechirish jarayonini va uning natijalarini sud majlisi bayonnomasida qayd etishi belgilangan.

Bayonnomada ko’zdan kechirish davomida topilgan barcha narsalar, ular qanday tartibda ko’zdan kechirilgan bo’lsa, xuddi shu tartibda, ko’zdan kechirish paytida qanday holatda kuzatilgan bo’lsa, xuddi shu holatda qayd etiladi. Ko’zdan kechirish chog’ida topilgan va olingan barcha izlar, narsalar va hujjatlar sanab o’tiladi. Olingan buyumning egasiga tegishli ma’lumotnoma yoki bayonnomaning nusxasi beriladi.

Bundan tashqari, bayonnomada: ko’zdan kechirish qaysi vaqtda, qanday ob-havoda va qanday yorug’likda o’tkazilganligi; qanday ilmiy-texnika vositalari qo’llanilganligi va qanday natijalar olinganligi; ko’zdan kechirishda ko’maklashish uchun kimlar jalb qilinganligi va ko’maklashish nimada o’z aksini topganligi; qanday narsalar va hujjatlar qay tartibda va qanday muhr bilan muhrlanganligi; ko’zdan kechirilganidan keyin murda va ish uchun ahamiyatli bo’lgan narsalarning qayerga yuborilganligi ko’rsatilgan bo’lishi lozim.

Shu bilan birgalikda ko’zdan kechirish tergov harakatini o’tkazish asoslari va protsessual tartibini takomillashtirish zarurati ham bor. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 30 noyabrdagi PQ – 381-son qarorida Bosh prokuratura Oliy sud, Ichki ishlar vazirligi, Agentlik, Davlat xavfsizlik xizmati, Adliya vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi va boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda qonunchilik hujjatlariga raqamli texnologiyalar vositasida jinoyat sodir etilgan joy va usulini aniqlashning jinoiy va jinoyat-protsessual asoslarini, elektron (raqamli) dalillarni aniqlash, to’plash, tekshirish, ekspertiza qilish, hisobga olish va saqlash tartibini takomillashtirishni nazarda tutuvchi o’zgartirish va qo’shimchalar to’g’risida takliflar kiritishi vazifasi yuklatilgan edi [16]. Chunki bugungi kunda asosiy axborot raqamli tashuvchilarda saqlanadi.

Shundan kelib chiqqan holda, JPKning ko’zdan kechirish tergov harakatini o’tkazish uchun asoslar belgilangan 135-moddasi birinchi qismidagi “narsalar va hujjatlarni” degan so’zlarni “narsalar va hujjatlar, elektron (raqamli ma’lumotlar)ni” degan so’zlar bilan almashtirish taklif etiladi. Xuddi shuningdek, ushbu moddaning uchinchi qismiga ham tegishli o’zgartirishlar kiritish taklif etiladi.

Aynan shu ma’nodagi o’zgartirishlar JPKning 140- va 141-moddalariga ham kiritilishi zarur.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, hodisa sodir bo’lgan joyini ko’zdan kechirish jinoyat ishlarini to’g’ri va samarali tergov qilishda hal qiluvchi o’ringa ega. Ushbu tergov harakatining o’z vaqtida va sifatli o’tkazilishi jinoyat izlarini yo’qolib ketishidan saqlaydi, aybdor shaxsni aniqlash va uning qilmishi isbotlanishida asosiy manba bo’lib xizmat qiladi.

Qurilish ishlari paytida mehnat muhofazasi va xavfsizlik qoidalarini buzish holatlarida ko'zdan kechirish jarayoni o'ziga xos jihatlariga ega bo'lib, tergovchidan nafaqat huquqiy bilim, balki sohaviy-texnik tayyorgarlikni ham talab qiladi. Shuningdek, tergov harakatlariga zamonaviy raqamli texnologiyalarni jalb etish, elektron dalillarni to'plash va tekshirish orqali qonuniylik va adolatni ta'minlash imkoniyatlari yanada kengayadi.

Shu bois, Jinoyat-protsessual kodeks normalarini takomillashtirish, xususan, elektron dalillarni ko'zdan kechirish tartibini qonunchilikda alohida belgilash, tergov amaliyoti samaradorligini oshirishning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Дворкин А.И. Осмотр места происшествия: Практическое пособие. – М., Юрист, 2001. – С. 336.
2. Давыдов А.А. Осмотр места происшествия. Специальный курс. – Нальчик: Каб.-Балк. ун-т., 2002. – С. 196.
3. Mirazov D.M. Tergovga qadar tekshiruv o'tkazish asoslari, tartibi va xususiyatlari: O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016. – B. 75.
4. Muminov M. Jinoyat haqidagi ariza va xabarlarini tekshirishda dalillar maqbulligini ta'minlash. "Academic Excellence on Science and Research" Special Issue 2022. B.402
5. Jo'raev F.M. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda zamonaviy texnik vositalardan foydalanishning samaradorligi. EURASIAN JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES. Volume 3 Special Issue, July 2023. B. 68-69.
6. Imomnazarov A.X. Ko'zdan kechirish tergov harakatini takomillashtirishning protsessual va kriminalistik jihatlarini. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent-2023. B. 26
7. Беляева И.М. Практика и проблемы методики расследования преступлений, нарушающих безопасные условия труда: дис. ... канд. юрид. наук. Челябинск, 2006. С. 137; Бутырин А.Ю. Судебная строительно-техническая экспертиза в расследовании несчастных случаев и аварий: монография. М., 2003. С. 185.
8. Бутырин А.Ю. Судебная строительно-техническая экспертиза в расследовании несчастных случаев и аварий: монография. М., 2003. С. 186-187.
9. Бурданова В.С. Избранное. СПб., 2002; Рохлин В.И. Прокурорский надзор и расследование уголовных дел о нарушениях правил охраны труда и техники безопасности. Ижевск. 1992. С. 13.
10. Криминалистика / Под ред. д-ра юрид. наук, проф. В.А. Образцова. М., 1997. С. 682.
11. Рохлин В.И. Прокурорский надзор и расследование уголовных дел о нарушениях правил охраны труда и техники безопасности. Ижевск, 1992. С. 13.
12. Imomnazarov A.X. Ko'zdan kechirish tergov harakatini takomillashtirishning protsessual va kriminalistik jihatlarini. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 2003 yil. B.26-27.
13. Бабаева Э.У. Некоторые общие положения осмотра места происшествия // Осмотр места происшествия: практическое пособие / Под ред. А.И. Дворкина. М., Юрист, 2000. -С 59.
14. Беляева И.М. Практика и проблемы методики расследования преступлений, нарушающих безопасные условия труда: дис. ... канд. юрид. наук. Челябинск, 2006. С. 145.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 30 noyabrdagi "[Raqamli mahsulotlar \(xizmatlar\) iste'molchilari huquqlarini himoya qilish va raqamli texnologiyalar vositasida](#)

[sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishni kuchaytirish choralari to'g'risida](#)”gi PQ – 381-son qarori.O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/6681111> (murojaat sanasi 24.09.2024 y.)

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).